

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG’OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Avgust, 2026-yil

VOYAGA YETMAGANLAR MEHNAT HUQUQLARI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT KAFOLATLARI

Narpay tuman adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi

Bosh yuriskonsulti

Isoqulov Asilbek

Mamlakatimizda yosh avlodning ma’naviy hamda jismoniy rivojlanishi, ularning sifatli ta’lim olishi va huquqlari muhofaza qilinishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, Mehnat kodeksida voyaga yetmagan, ya’ni 18 yoshga to‘lmagan shaxslarning mehnat huquqlariga alohida e’tibor qaratilgan. Qonunchilik ularga kattalar bilan teng mehnat huquqlarini taqdim etishi bilan birga, ularning hali to‘liq shakllanmagan organizmi va rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olib, qator qo‘shimcha imtiyozlar va kafolatlarni belgilaydi.

Ishga qabul qilishning yosh chegaralari

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga ko‘ra, fuqarolarning mustaqil ravishda mehnat shartnomasini tuzishi uchun 16 yosh umumiy mezon sifatida belgilangan. Biroq, qonunchilik yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va tajriba orttirishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida istisnolarni ham nazarda tutadi:

- 15 yoshga to‘lgan shaxslar — ota-onasidan birining (yoki vasiylarining) yozma roziligi bilan ishga kirishlari mumkin.
- 14 yoshga to‘lgan o‘quvchilar — darsdan bo‘sh vaqtlarida, ularning sog‘lig‘i va ma’naviy kamolotiga zarar yetkazmaydigan yengil ishlarda, ota-onasi hamda vasiylik va homiylik organlarining roziligi bilan mehnat qilishlariga ruxsat etiladi.

Mehnat jarayonidagi imtiyozlar va cheklovlar

Voyaga yetmagan xodimlarni ishga qabul qilish va ularning mehnat faoliyatini tashkil etishda ish beruvchi zimmasiga qator majburiyatlar yuklanadi. Avvalo, 18 yoshga to‘lmagan shaxslarni ishga qabul qilishda dastlabki sinov muddati belgilanmaydi. Shuningdek, ular 18 yoshga to‘lgunga qadar har yili majburiy ravishda bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tib turishlari shart. Ish vaqti bo‘yicha imtiyozlar: Voyaga yetmaganlar uchun qisqartirilgan ish vaqti belgilangan bo‘lib, bu ularning salomatligi va ta’lim olish imkoniyatini muhofaza qiladi:

- 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan xodimlarga haftasiga 36 soatdan ko‘p bo‘lmagan;
- 15 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga haftasiga 24 soatdan ko‘p bo‘lmagan ish vaqti tozalanadi. (O‘quv yili davomida darsdan bo‘sh vaqtda ishlayotgan o‘quvchilar uchun ushbu normalar tegishli 2 baravarga kamaytiriladi).

Muhim jihati shundaki, ish vaqtining qisqartirilishiga qaramay, voyaga yetmagan xodimlarga mehnat haqisi tegishli toifadagi xodimlar uchun belgilangan to‘liq miqdorda (to‘liq stavka bo‘yicha) to‘lanadi.

Taqiqlar va xavfsizlik chorasi

Yoshlarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillarning oldini olish maqsadida qonunchilikda aniq taqiqlar belgilangan. Voyaga

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Avgust, 2026-yil

yetmaganlarni: 1. Og‘ir, zararli va xavfli mehnat sharoitlari mavjud bo‘lgan ishlarga (masalan, yer osti ishlari);

2. Ularning ma’naviy va ruhiy rivojlanishiga putur yetkazuvchi sohalarga (kazino, tun gi klublar, spirtli va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda sotish joylari);

3. Tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb etish qat’iyan man etiladi.

Dam olish va shartnomani bekor qilish tartibi

Voyaga yetmagan xodimlarning dam olish huquqi ham kengaytirilgan. Ularga har yili kamida 30 kalendar kundan iborat uzaytirilgan mehnat ta’tili beriladi. Eng muhimi, ular ushbu ta’tildan ish beruvchi bilan tuzilgan jadvaldan qat’i nazar, o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaqtda (masalan, yozgi ta’til davrida) foydalanish huquqiga ega.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchi tashabbusi bilan bekor qilish alohida murakkab tartibga ega. Ish beruvchi bunday qarorga kelganda, umumiy asoslardan tashqari, mahalliy mehnat organi (Bandlik bo‘limi) hamda Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaning roziligini olishi shart. Ushbu qoida yosh xodimlarni asossiz ishdan bo‘shatilishidan himoya qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini mustahkam va har taraflama kafolatlaydi. Bu qoidalar yoshlarning erta mehnat faoliyatini tartibga solibgina qolmay, ularning eng asosiy huquqlari — ta’lim olish, salomatlikni saqlash hamda har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetish huquqlarini ta’minlashga xizmat qiladi.